

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

DEKABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-4-8

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sharipova Zaynab

NEFT SHLAMLARINING FIZIK-KIMYOVIY TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ
ETISH MASALASIGA DOIR DASTLABKI TADQIQOTLAR4-12

Kasimov Sandjar

ENERGIYA TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI SERTIFIKATLASHTIRISH VA
STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI MASALASI 13-21

Rahimov Oktyabr, Cho'liyeva Munisa

MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISHDA KOMPETENTLIKGA YEVRUPACHA
YONDOSHUV 22-26

Safoyev Nuriddin

AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASHDA TASODIFIY SONLAR GENERATORLARINING
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI 27-33

TARIX FANLARI

Pirimkulova Saodat

URUSH YILLARIDA BOLALAR MUAMMOSI: TARIXIY XOTIRA VA HUJJATLARDAGI
ETILISHI 34-36

Eliyeva Nargiza

BENAZIR ILM SOHIBI 37-39

IQTISODIYOT FANLARI

Usmonov Murodbek

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI IFODALOVCHI
KO'RSATKICHLAR TAHLILI 40-44

Valiev Umid

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-
TADBIRLARI 45-48

YURIDIK FANLARI

Reymbayeva Guldaulet

THE RIGHTS OF TOURISTS IN THE DIGITAL ERA: NEW CHALLENGES AND LEGAL
PROTECTIONS 49-54

Турсунова Маликахон

ДИПЛОМАТИЯ И МЯГКАЯ СИЛА: СООТНОШЕНИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНЫЙ
ВЗГЛЯД 55-63

Muxitdinova Firuza

KONSTITUTSIYAVIY MODERNIZATSIYA VA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTONNING
DUNYO MAYDONIDAGI YANGI YO'NALISHI 64-68

KONSTITUTSIYAVIY MODERNIZATSIYA VA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTONNING DUNYO MAYDONIDAGI YANGI YO'NALISHI

Muxitdinova Firuza Abdurashidovna

Toshkent davlat yuridik universiteti,

«Davlat va huquq nazariyasi» kafedrası, professori, yuridik fanlari doktori

Tel: 93-509 87 01

Email: feruza.mukhitdinova@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1721-0189

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2025 yilda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasining ichki siyosiy rivojlanish va xalqaro hamkorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada normativ-huquqiy, institutsional va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanilib, C5+1 sammiti doirasidagi tashabbuslar bilan konstitutsiyaviy islohotlarning uyg'unligi ko'rsatildi. Shuningdek, maqolada yangi Konstitutsiya orqali O'zbekistonning strategik sheriklik, investitsiya imkoniyatlari va ta'lim hamda madaniyat sohasidagi hamkorliklari baholandi.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy modernizatsiya, xalqaro hamkorlik, O'zbekiston, C5+1, investitsiya, ta'lim va madaniyat, strategik sheriklik, tashqi siyosat, inson huquqlari, iqtisodiy rivojlanish.

CONSTITUTIONAL MODERNIZATION AND INTERNATIONAL COOPERATION: NEW DIRECTIONS OF UZBEKISTAN IN THE GLOBAL ARENA

Mukhitdinova Fiyuza Abdurashidovna

Professor, Doctor of Legal Sciences, Department of state and law theory,

Tashkent State Law University

Annotation. This article examines the impact of Uzbekistan's 2025 Constitution on domestic political development and international cooperation. Normative-legal, institutional, and comparative analysis methods are applied, highlighting the alignment of constitutional reforms with initiatives within the C5+1 summit. The study also evaluates Uzbekistan's strategic partnerships, investment opportunities, and collaboration in education and cultural sectors under the new Constitution.

Key words: constitutional modernization, international cooperation, Uzbekistan, C5+1, nvestment, education and culture, strategic partnership, foreign policy, human rights, economic development.

Kirish

2025 yilda O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini qabul qilishi mamlakatning ichki siyosiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqichni belgiladi. Yangi tahrirda davlatning demokratik institutlari mustahkamlanadi, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatining ahamiyati ustuvor qilib belgilanadi, iqtisodiy erkinlik va ochiq tashqi siyosat prinsiplari mustahkamlanadi. Bu o'zgarishlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro maydonda O'zbekistonning mavqeini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning AQShga rasmiy tashrifi va «C5+1» sammitida ishtirok etishi – yangi konstitutsiyaviy tamoyillarni dunyo hamjamiyatiga taqdim etish, strategik sherikliklar, investitsiya va gumanitar hamkorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda muhim voqelik hisoblanadi. Sammitda ilgari surilgan tashabbuslar – investitsiyaviy fondlar, doimiy Sekretariat, agrotexnologik va ta'lim sohasidagi hamkorlik – Konstitutsiyada belgilangan

barqaror rivojlanish, inson kapitalini rivojlantirish va milliy merosni asrash prinsiplari bilan uyg'un.

Shuningdek, yangi Konstitutsiya O'zbekistonning xalqaro hamkorlikdagi ishonchli va barqaror sherik sifatida mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tashrif dunyo hamjamiyatiga yuz tutishning amaliy namoyoni bo'lib, mamlakatning strategik va iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya maqolani ilmiy asoslangan, tizimli va chuqur tahliliy qilib beradi. Quyida asosiy metodlar keltiriladi:

Normativ-huquqiy tahlil usulida O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri, Prezident farmonlari, «C5+1» sammiti hujjatlari tahlil qilinib, tashqi siyosat tashabbuslarining huquqiy poydevori o'rganildi. Bu usul tashrif natijalarini konstitutsiyaviy modernizatsiya bilan uzviy bog'lash imkonini berdi.

Institutsional tahlil asosida «S5+1» kotibiyati, Investitsiyaviy Kengash, Mineral Qo'mita, ta'lim va madaniyat platformalarining institutsional modellari o'rganildi. Bu sohada Yevropa Ittifoqi, ASEAN kabi tashkilotlarning tajribasi bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Qiyosiy tahlil sifatida AQSh–Markaziy Osiyo hamkorligi jahon amaliyotidagi boshqa mintaqaviy formatlar bilan qiyoslab, o'xshashlik va farqlar o'rganildi.

MUHOKAMA

O'zbekiston Prezidentining AQShga rasmiy tashrifi va «C5+1» formatidagi sammitda ishtirok etishi, mamlakatning yangi konstitutsiyaviy rivojlanish bosqichini xalqaro darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim siyosiy voqelik sifatida namoyon bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan demokratik islohotlar, inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, tashqi siyosatning ochiqqligi va iqtisodiy erkinliklar – mazkur tashrif va muzokaralarning mazmun-mohiyatida o'z ifodasini topgan.

Sammitda ilgari surilgan tashabbuslar – doimiy Sekretariat, investitsiyaviy sheriklik fondi, mineral resurslar bo'yicha qo'mita, agrotexnologik innovatsiyalar, ta'lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik – mintaqaning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu tashabbuslar, bir tomondan, O'zbekistonning Konstitutsiyaviy islohotlar orqali belgilangan milliy rivojlanish strategiyasiga mos bo'lsa, ikkinchi tomondan, mintaqaning global geosiyosiy jarayonlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini oshiradi.

Muhokamada alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim va madaniy meros yo'nalishidagi tashabbuslar – bu nafaqat gumanitar hamkorlik, balki strategik muloqotning barqaror poydevoridi [2]. Ta'lim sohasidagi almashinuvlar inson kapitali rivojlanishiga, madaniy meros ko'rgazmalari esa mintaqaning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qiladi [3]. Bu esa, Konstitutsiyada aks etgan «ma'naviy merosni asrash» va «ta'lim sifati» normalarining amaliy ro'yobidir [1].

Prezident O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «S5+1» formatidagi sammit Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh o'rtasidagi strategik muloqotning yangi bosqichini ochib berdi [7]. Bu muloqotning asosiy maqsadlari – mintaqaning barqaror rivojlanishi, xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishdir [3]. Ushbu maqsadlar O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda

belgilangan barqaror taraqqiyot, inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolik jamiyati va ochiq tashqi siyosat tamoyillari bilan chambarchas bog'liq [8].

Prezident O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «S5+1» formatidagi sammit Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh o'rtasidagi strategik muloqotning yangi bosqichini ochib berdi. Bu muloqotning asosiy maqsadlari – mintaqaning barqaror rivojlanishi, xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishdir. Ushbu maqsadlar O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda belgilangan barqaror taraqqiyot, inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolik jamiyati va ochiq tashqi siyosat tamoyillari bilan chambarchas bog'liq.

Sammit doirasida ilgari surilgan tashabbuslar ham aynan konstitutsiyaviy islohotlar bilan uyg'un. Xususan, «S5+1» doirasida davomiy kotibiyat tashkil etish tashabbusi — Konstitutsiyada belgilangan «tashqi munosabatlarda o'zaro manfaatli, ochiq va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish» prinsiplarining amaliy ifodasidir. Sekretariat mintaqaviy loyihalarni muvofiqlashtirish, axborot almashinuvi va hamkorlik dasturlarining samarali ijrosini ta'minlaydi.

Investitsiyalar va savdo bo'yicha Koordinatsiya kengashi tashkil etilishi — O'zbekiston Konstitutsiyasidagi xususiy mulk daxlsizligi, tadbirkorlikni rag'batlantirish va ochiq iqtisodiyot tamoyillariga javob beradi. Ushbu kengash davlat idoralari, biznes tuzilmalari va moliyaviy institutlar o'rtasida tizimli muloqot platformasini yaratadi.

Shu bilan birga, «Markaziy Osiyo investitsiyaviy sheriklik fondi» tashkil etish tashabbusi — mintaqaning iqtisodiy hamjihatligini mustahkamlab, infratuzilma, sanoat va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi [9]. Bu O'zbekistonning Konstitutsiyada belgilangan «adolatli iqtisodiy rivojlanish va hududlar o'rtasidagi muvozanat» maqsadlariga to'la mos keladi.

Strategik minerallar bo'yicha qo'mita tashkil etish esa global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi «tabiiy boyliklar xalq boyligidir» degan qoidalardan kelib chiqib, mineral resurslardan oqilona va samarali foydalanish bu tashabbusning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Agrotexnologik innovatsiyalar sohasida AQSh bilan hamkorlik O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda muhim qadam bo'lib, Konstitutsiyada belgilangan «oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va inson manfaatlari ustuvorligi» kabi normalar bilan muvofiqdir. Zamonaviy irrigatsiya, o'simliklarni himoya qilish va resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy etish yurtimizda qishloq xo'jaligining samaradorligini oshiradi hamda iqlim o'zgarishiga bardosh beruvchi ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim jarayondir. Ekologik barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy meros ko'rgazmasini AQShda tashkil qilish tashabbusi ham O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash prinsiplarining amaliy ifodasidir. Bu tashabbus xalqaro maydonda Markaziy Osiyo madaniyatiga hurmat va qiziqishni oshiradi. Mintaqaning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini kuchaytiradi. Turizm va madaniy almashinuvi rivojlantiradi. Ta'lim va san'at sohasida yangi loyihalar uchun zamin yaratadi. Ta'lim va madaniy meros sohasidagi tashabbuslar sifatida ta'kidlash joizki, Prezidentning ta'lim va gumanitar sohalar bo'yicha tashabbuslari O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan «inson kapitali rivoji», «ta'limni qo'llab-quvvatlash»,

«madaniy merosni muhofaza qilish» tamoyillarining yangi, amaliyotga yo'naltirilgan bosqichidir.

Barchamiz guvoh bo'ldiki, O'zbekiston Prezidenti Lavkat Mirziyoev universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasida quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirishni taklif qildi: bu esa, qo'shma ta'lim dasturlari, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, AQSh texnologiya va metodikalarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini beradi. Bu tashabbuslar yangi Konstitutsiyadagi «ta'limning uzluksizligi va sifatini ta'minlash» hamda «fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash» normalariga uyg'un. Madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish borasidagi tashabbus ham konstitutsiyaviy tamoyillarimizga mos ravishda Markaziy Osiyo madaniy merosining AQShda namoyishi – jahon hamjamiyatida tarixiy merosga hurmatni oshiradi. Ikkinchidan, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlaydi. Uchinchidan, madaniy diplomatiyaning samarasini oshiradi. To'rtinchidan, ta'lim muassasalarida yangi ilmiy yo'nalishlarga zamin yaratadi. Bu Konstitutsiyadagi «madaniy boyliklarni asrash» tamoyilining to'la amalga oshirilishi hisoblanadi. Albatta bu kabi Kongress va Senatdagi uchrashuvlarni konstitutsiyaviy islohotlarning amaliy ifodasi desak, to'g'ri bo'ladi. Zero, 5 noyabr kuni AQSh Kongressi va Senati a'zolari bilan bo'lgan muzokaralar O'zbekistonning yangi konstitutsiyaviy siyosiy modelini xalqaro maydonda mustahkamladi. Uchrashuvlar quyidagi yo'nalishlarda amaliy natijalar berdi. Jumladan, o'zaro delegatsiyalar tashrifi — parlamentlar o'rtasida institutsional muloqot kuchaydi.

1. Investitsiya va savdo — konstitutsiyadagi iqtisodiy erkinlik tamoyillarini amaliy qo'llab-quvvatlaydi.

2. Shtatlar bilan hamkorlik — Michigan, Kaliforniya, Montana va Virjiniya bilan klaster loyihalari ham farovon turmushning konstitutsiyaviy asosni ta'minlashga xizmat qiladi. Gumanitar hamkorlik — ta'lim, stajirovkalar, madaniy loyihalar, ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilgani xalqimiz uchun, ayniqsa, yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qiladi. Albatta, Oliy darajadagi muzokaralar davlatlar o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichidir. 6 noyabrda Oq uyda bo'lib o'tgan uchrashuvda ikki davlat rahbarlari strategik sheriklikni yanada kengaytirish, energetika, transport, texnologiya, investitsiya va ta'lim sohalarida loyihalarni amalga oshirishni kelishib oldilar. Prezident Donald Trampni O'zbekistonga taklif etish mamlakatlar o'rtasidagi ishonch va amaliy hamkorlik darajasining yuqori ekanini ko'rsatdi.

Bu jarayonlar yangi Konstitutsiyadagi «ochiqlik, hamkorlik va inson manfaatlarini ustuvor qo'yish» tamoyillarining to'la ro'yobga chiqishidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – тошкент, 2023. lex.uz
2. Президент Ш. Мирзиёев. «Таълим ва маданий меросни ривожлантириш» нутқи. – Тошкент, 2025 йил. <https://president.uz/uz>
3. C5+1 САММИТИ НАТИЖАЛАРИ БЎЙИЧА РАСМИЙ БАЁНОТ. – ВАШИНГТОН, 2025 йил. <https://president.uz>
4. ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI PREZIDENT FARMONLARI VA ҚАРОРЛАРИ, 2025 йил. <https://president.uz>

5. ТАШҚИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ МАТЕРИАЛЛАРИ: АҚШГА ТАШРИФ ВА ҲАМКОРЛИК ДАСТУРЛАРИ. – ТОШКЕНТ, 2025.
6. МАРКАЗИЙ ОСИЁ ИНВЕСТИЦИЯВИЙ ШЕРИКЛИК ФОНДИ: РАСМИЙ ВЕБ-САЙТ, 2025. <https://president.uz>
7. Президент Ш. Мирзиёевнинг АҚШга ташрифи, 2025 йил 5 ноябрь. <https://president.uz>
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2025 йил, моддалар 6–15 <https://lex.uz/>
9. Ўзбекистон Президенти “C5+1” форматидаги шерикликни янада кенгайтиришга чақирди. <https://president.uz/uz>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 1-dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.